



Criminological characteristics of corruption-related crimes and prospects for their prevention

Munira KAKHAROVA¹

The Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2025

Received in revised form

5 December 2025

Accepted 10 January 2026

Available online

25 January 2026

Keywords:

corruption crime coefficient,
latency,
embezzlement,
criminological forecast,
digital control,
criminal proceeds,
prevention.

ABSTRACT

This article provides a comparative analysis of the state of corruption crime in the Republic of Uzbekistan for 2020–2025 and its trends. The study demonstrates that not only the absolute number of crimes but also a sharp increase in the crime coefficient (intensity) per 100 thousand population has occurred; moreover, qualitative changes in the structure of crime – specifically, a shift from fraud to the embezzlement of budget funds – are scientifically substantiated. In addition, factors causing corruption in territorial and sectoral contexts are examined, and proposals are advanced to improve preventive mechanisms through the use of digital technologies.

2181-1415/© 2026 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol7-iss1/S-pp271-276>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Korrupsion jinoyatchilikning kriminologik tavsifi va oldini olish istiqbollari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

korrupsion jinoyatchilik
koeffitsienti,
latentlik,
talon-torajlik,
kriminologik prognoz,
raqamli nazorat,
jinoiy daromadlar,
profilaktika.

Mazkur maqolada 2020–2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida korrupsion jinoyatchilikning holati va uning o'zgarish tendensiyalari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida jinoyatlarning absolyut soni emas, balki har 100 ming aholiga nisbatan jinoyatchilik koeffitsiyentining (intensivligi) keskin oshuvi, jinoyatchilik strukturasidagi sifat o'zgarishlari – firibgarlikdan byudjet mablag'larini talon-toroj qilishga o'tish jarayoni ilmiy asoslangan. Shuningdek, hududiy va sohaviy kesimda korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar o'rganilib, raqamli texnologiyalar vositasida profilaktik mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

¹ Doctor of Political Sciences, Research Fellow, The Research Institute of Criminology of the Republic of Uzbekistan.

Криминологическая характеристика коррупционной преступности и перспективы ее предупреждения

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

коэффициент
коррупционной
преступности,
латентность,
хищение,
криминологический
прогноз,
цифровой контроль,
преступные доходы,
профилактика.

В данной статье представлен сравнительный анализ состояния коррупционной преступности в Республике Узбекистан за 2020–2025 годы и ее тенденций. Исследование показывает, что научно обоснованы не только абсолютные показатели преступлений, но и резкое увеличение коэффициента преступности (интенсивности) на 100 тысяч населения, качественные изменения в структуре преступности – переход от мошенничества к хищению бюджетных средств. Также изучены факторы, вызывающие коррупцию в территориально-отраслевом контексте, и предложены меры по совершенствованию профилактических механизмов с использованием цифровых технологий.

KIRISH

Zamonaviy globalashuv sharoitida korrupsiya hodisasi davlat boshqaruvi apparatining samaradorligini yemiruvchi, iqtisodiy o'sishni sekinlashtiruvchi va eng muhimi, jamiyatning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini so'ndiruvchi tizimli tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ma'muriy va huquqiy islohotlar davlat xizmatida ochiqlik, hisobdorlik va shaffoflik standartlarini joriy etishni maqsad qilgan. Biroq, jamiyat hayotining turli sohalarida korrupsion xavf darajasining saqlanib qolayotganligi va ayrim yo'nalishlarda uning yangi, moslashuvchan shakllarining paydo bo'layotganligi mazkur muammoni chuqur ilmiy-kriminologik tadqiq etishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi, avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashish paradigmasining o'zgarishi bilan bog'liq. An'anaviy yondashuvda jinoyatchilik holatiga baho berishda ko'pincha absolyut statistik ko'rsatkichlarga – qayd etilgan jinoyatlarning umumiy soniga tayaniladi. Lekin bunday yondashuv real kriminogen vaziyatni to'liq aks ettirmasligi mumkin. Zero, absolyut raqamlarning o'sishi har doim ham jinoyatchilikning real ko'payishini anglatmay, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faolligi va latent (yashirin) jinoyatlarni aniqlash salohiyati oshganligining natijasi bo'lishi ham mumkin. Shu bois, mazkur tadqiqotda korrupsion jinoyatchilikning intensivligini aholi jon boshiga nisbatan koeffitsientlar orqali tahlil qilish, hududiy va sohaviy determinantlarni (sabab va sharoitlarni) qiyosiy o'rganish ilmiy zarurat sifatida qaraladi.

Shuningdek, tadqiqotning muhim jihati korrupsion jinoyatchilik strukturasidagi sifat o'zgarishlarini (transformatsiyani) aniqlashdan iborat. So'nggi yillardagi kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, korrupsiya oddiy "maishiy poraxo'rlik" darajasidan murakkab, ko'p bosqichli va yuqori intellektual salohiyat talab qiluvchi "elitar korrupsiya" shakliga o'tmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar va davlat xaridlari tizimidagi bo'shliqlardan foydalangan holda sodir etilayotgan byudjet mablag'larini talon-toraj qilish jinoyatlarining ulushi ortib borayotgani, profilaktik chora-tadbirlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu esa mavzuning nafaqat kriminologiya, jinoyat huquqi, balki iqtisodiyot, sotsiologiya va raqamli boshqaruv fanlari kesimida o'rganilishi lozimligini asoslaydi.

Mazkur maqolaning ilmiy qiymati shundaki, unda korrupsiyaga qarshi kurashishning “reaktiv” (oqibatlar bilan kurashish) modelidan “proaktiv” (xavflarni oldindan baholash va bartaraf etish) modeliga o’tish mexanizmlari tahlil qilinadi. Davlat byudjetiga yetkazilayotgan moliyaviy zararining o’sish dinamikasi va uni qoplash mexanizmlaridagi muammolarning ilmiy asoslab berilishi, qonunchilikni takomillashtirish va amaliyotga yangi “komplaens-nazorat” vositalarini joriy etish uchun nazariy poydevor vazifasini o’taydi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot O’zbekistonda qonun ustuvorligini ta’minlash va korrupsiyasiz jamiyatni shakllantirishga qaratilgan davlat siyosatining ilmiy-metodologik bazasini boyitishga xizmat qiladi.

Korrupsion jinoyatchilik dinamikasi va intensivligining qiyosiy tahlili

2020–2025-yillarni qamrab olgan retrospektiv tahlillar respublikada korrupsion vaziyatning keskin o’zgarib borayotganini, aniqrog’i, jinoyatlarni qayd etish darajasining eksponensial o’sish traektoriyasiga o’tganini ko’rsatmoqda. Agar 2020-yildagi statistik ko’rsatkichlarni bazaviy indeksatsiya davri sifatida qabul qilsak, 2025-yilga kelib jinoyatchilikning o’sish sur’ati olti barobarga oshganligi kuzatiladi. Bunday keskin dinamika odatda kriminogen vaziyatning favqulodda o’zgarishi yoki jinoyat-qidiruv siyosatining tubdan yangilanishi natijasida yuzaga keladi.

Tadqiqotning muhim jihati shundaki, mazkur o’sish sur’ati mamlakat aholisining tabiiy demografik ko’payishi bilan mutanosib emas. Kriminologiyada jinoyatchilikning real holatini baholash uchun foydalaniladigan “jinoyatchilik koeffitsienti” (har 100 ming aholiga to’g’ri keladigan jinoyatlar soni) so’nggi olti yil ichida keskin yuqoriladi. Xususan, 2020-yilda ushbu koeffitsient minimal darajada bo’lgan bo’lsa, 2025-yilda respublika miqyosida uning sezilarli darajada ortishi, jamiyatda korrupsion xavf zichligi (density of corruption) oshganidan dalolat beradi.

Ushbu tendensiyaning ilmiy izohi ikki qarama-qarshi, ammo bir-birini to’ldiruvchi omillar yig’indisi bilan ifodalanadi:

Birinchidan, latentlik darajasining qisqarishi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida raqamli texnologiyalarning qo’llanilishi va tezkor-qidiruv tadbirlarining intensivlashuvi natijasida ilgari yashirin bo’lgan korrupsion jinoyatlarni fosh etish imkoniyati kengaydi. Bu holatda statistikaning o’sishi – jinoyatchilikning nazoratga olinayotganini va sovuqlik effekti (chilling effect) kamayayotganini anglatuvchi ijobiy indikator sifatida ham baholanishi mumkin.

Ikkinchidan, korrupsion sxemalarning institutsionallashuvi. Byudjet mablag’larini taqsimlash, davlat xaridlari va subsidiyalar ajratish jarayonlarida korrupsion mexanizmlarning yangi, uyushgan shakllari faollashdi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, jinoyatchilik nafaqat son jihatidan ko’paygan, balki uning sifati ham o’zgargan – yakka tartibdagi poraxo’rlikdan guruhiiy talon-torojlikka o’tish jarayoni kuchaygan. Bu esa o’z navbatida jinoyatchilik intensivligining ortishiga ob’ektiv zamin yaratmoqda.

Korrupsion jinoyatchilik tuzilmasidagi sifat o’zgarishlari va transformatsion jarayonlar

Kriminologik monitoring natijalari shuni ko’rsatadiki, so’nggi besh yillikda respublikadagi korrupsion vaziyatning ichki arxitektonikasida jiddiy metamorfoza jarayonlari yuz berdi. Jinoyatchilikning qiyofasi (modus operandi) o’zgarmoqda, bu esa jinoiy tajovuz ob’ektlarining qayta taqsimlanishida yaqqol namoyon bo’ladi.

Retrospektiv tahlillarga ko’ra, 2021–2023-yillarni qamrab olgan davrda korrupsion jinoyatlarning morfologiyasida firibgarlik (O’zbekiston Respublikasi JK 168-modda) mutlaq ustuvorlik qilgan bo’lib, qayd etilgan jami jinoyatlarning qariyb

50 foizini tashkil etgan. Bu davrda jinoyatchilik asosan fuqarolar o'rtasidagi yoki quyi bo'g'in mansabdor shaxslari ishtirokidagi maishiy xarakterdagi aldov va ishonchni suiiste'mol qilish ko'rinishida namoyon bo'lgan.

Biroq, 2025-yilga kelib ushbu tendensiyada tub burilish kuzatildi. Bugungi kunda jinoiy statistikada o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish (JK 167-modda) hamda mansab soxtakorligi (JK 209-modda) dominant mavqega ega bo'lmoqda. Empirik ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, 2025-yilda aniqlangan jami korrupsion jinoyatlarning 30 foizdan ortiq qismi bevosita byudjet mablag'larini talon-toraj qilish bilan bog'liqdir.

Mazkur siljish korrupsiyaning tabiati o'zgarganidan dalolat beradi: jinoyatchilik "maishiy korrupsiya" (fuqaro va mansabdor o'rtasidagi mayda pora yoki xizmat mavqeidan foydalanib firibgarlik qilish) darajasidan "elitar korrupsiya" (davlat xaridlari, subsidiyalar va yirik investitsiyaviy loyihalar doirasida byudjet mablag'larini tizimli ravishda o'marish) darajasiga ko'chmoqda. Bunday sifat o'zgarishi jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini keskin oshiradi, chunki endilikda jinoiy tajovuz alohida shaxslarning mulkiga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri davlat iqtisodiy xavfsizligiga qaratilmoqda.

Korrupsion jinoyatchilikning hududiy va sohaviy determinantlari: Geo-kriminologik tahlil

Geo-kriminologik monitoring natijalari shuni ko'rsatadiki, korrupsion jinoyatchilikning hududiy topografiyasi hududlarning demografik zichligi va iqtisodiy salohiyati bilan to'g'ridan-to'g'ri korrelyatsion bog'liqlikka ega. Empirik ma'lumotlar Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlarida korrupsion xavf indeksining yuqoriligini tasdiqlaydi. Ushbu hududlarda har 10 ming aholiga to'g'ri keladigan jinoyatlar koeffitsienti respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan sezilarli darajada ortiqdir. Xususan, poytaxt megapolisida moliyaviy oqimlarning konsentratsiyalashuvi natijasida jinoyatchilik zichligi va yetkazilgan moliyaviy zarar miqdori (respublika bo'yicha jami zararining qariyb 30 foizi) absolyut maksimumni tashkil etadi.

Sohaviy kriminologiya nuqtai nazaridan, transport va logistika tizimi eng yuqori "korrupsion xavf zonasi" sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlillar ushbu sohada qayd etilgan jinoyatlarning 70 foizi aynan talon-torajlik bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Bu raqam sohada davlat subsidiyalari va investitsiya mablag'larini o'zlashtirishning tizimli va uyushgan shakllari mavjudligidan, shuningdek, korporativ boshqaruvdagi ichki nazorat mexanizmlarining samarasizligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda, Qashqadaryo viloyatidagi vaziyat o'ziga xos kriminologik paradoksni namoyon etadi. Ushbu hududda qayd etilgan jinoyatlarning son jihatidan ko'rsatkichi nisbatan o'rtacha bo'lsa-da, yetkazilgan moliyaviy zarar hajmi bo'yicha respublikada yetakchi o'rinlarda turishi kuzatiladi. Bu tendensiya mazkur hududda kam sonli, biroq o'ta yirik miqdordagi va yuqori ijtimoiy xavflilik darajasiga ega bo'lgan latent korrupsion jinoyatlar sodir etilayotganini, ya'ni korrupsiya "ommaviylik"dan ko'ra "sifat" (yirik hajm) tomon o'zgarganini anglatadi.

Korrupsiyaning iqtisodiy oqibatlari va jazo muqarrarlari tamoyilining ta'minlanishi

Korrupsion jinoyatchilikning ijtimoiy xavflilik darajasi nafaqat huquqiy nigilizm, balki milliy iqtisodiyotga yetkazilayotgan real fiskal zarar ko'lami bilan baholanadi. 2025-yil yakunlariga ko'ra, korrupsion deviant xulq-atvor oqibatida davlat byudjeti va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan moddiy zarar miqdori retrospektiv davrga nisbatan geometrik progressiyada o'sib, trillion so'mlik psixologik chegarani hatlab o'tdi.

Biroq, ushbu vaziyatda eng jiddiy kriminologik muammo – bu zararning undirilish koeffitsienti hisoblanadi. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, yetkazilgan ulkan moliyaviy yo'qotishlarning qoplov darajasi 41 foiz atrofida stagnatsiya (turg'unlik) holatida qolmoqda. Bu esa davlat byudjetiga yetkazilgan zararning 50 foizdan ortiq qismi qoplanmayotganini, ya'ni jinoiy kapitalning "soyada" qolib ketayotganini anglatadi.

Mazkur disproporsiya jazo muqarrarlari tamoyiliga putur yetkazadi. Zero, jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish va jinoiy aktivlarni qidirish mexanizmlarining samarasizligi, korrupsionerlarda **jinoiyat sodir etish iqtisodiy jihatdan foydali** degan noto'g'ri ishonchni shakllantirishi mumkin. Shu bois, jinoiy jazo faqat ozodlikdan mahrum qilish bilan cheklanmay, balki to'liq moliyaviy restitutsiyani ta'minlashga qaratilishi shart.

Xulosa va takliflar:

O'tkazilgan kriminologik tahlillar va empirik ma'lumotlar asosida, O'zbekiston Respublikasida korrupsion jinoyatchilikni jilovlash hamda uning latentlik darajasini qisqartirish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etish taklif etiladi:

Birinchidan, "Smart-nazorat" va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish.

Davlat byudjeti mablag'larining sarflanishini monitoring qilishda inson omilini to'liq istisno qiluvchi, "shubhali operatsiyalar"ni avtomatik aniqlovchi sun'iy intellekt (AI) algoritmlarini keng joriy etish lozim. Xususan, davlat xaridlari portalida narxlarni sun'iy oshirish, affillanganlik va raqobatni cheklash holatlarini aniqlovchi **"Raqamli auditor"** dasturiy ta'minotini ishga tushirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, "Fuqarolik musodarasi" (Civil Forfeiture) institutini qonunchilikka kiritish. Jinoiy sudlovdan tashqari, mansabdor shaxsning qonuniy daromadlariga mos kelmaydigan, kelib chiqishi noma'lum bo'lgan aktivlarini fuqarolik tartibida davlat foydasiga musodara qilish mexanizmini yaratish zarur. Bunda isbotlash majburiyati gumon qilinuvchining zimmasiga yuklatilishi, ya'ni mansabdor o'z boyligining qonuniyligini isbotlab berishi shart bo'lgan tartib joriy etilishi kerak.

Uchinchidan, Profilaktikaning "Pro-active" (oldindan baholash) modeliga o'tish. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jinoyat sodir etilganidan so'ng chora ko'rish amaliyotidan voz kechib, xavflarni oldindan prognoz qilish tizimini yaratish lozim. Buning uchun har bir davlat organi va soha kesimida "Korrupsiyaga moyillik indeksi"ni (Corruption Proneness Index) yuritish va "qizil" toifaga kirgan idoralarda tashqi audit hamda moliyaviy nazoratni kuchaytirish talab etiladi.

To'rtinchidan, "Benefitsiar mulkdor" reestrini shakllantirish. Davlat xaridlari va investitsiya loyihalarida ishtirok etuvchi tadbirkorlik sub'ektlarining haqiqiy egalarini oshkor qilish majburiyligini belgilash zarur. Bu byudjet mablag'larining mansabdor shaxslarga aloqador bo'lgan yashirin kompaniyalarga o'tib ketishining oldini oladigan eng samarali vositadir.

Beshinchidan, Komplaens-nazorat tizimining vertikal mustaqilligi. Vazirlik va idoralardagi komplaens-nazorat tuzilmalarining bevosita tashkilot rahbariga bo'ysunishi manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaradi. Ushbu tuzilmalarni ma'muriy jihatdan mustaqil qilish va ularning hisobdorligini to'g'ridan-to'g'ri **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga** o'tkazish orqali idoraviy korrupsiyani jilovlash mumkin.

Oltinchidan, "Integrity Testing" (Halollikni sinash) amaliyotini joriy etish. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va nazorat qiluvchi idoralar xodimlarining xizmat vazifasini bajarish jarayonida korrupsiyaga moyilligini tekshirish maqsadida, qonunchilik doirasida maxsus **simulyatsion testlarni** o'tkazish tizimini yo'lga qo'yish kerak. Bu kadrlarni tanlash va tozalashning samarali mexanizmi hisoblanadi.

Yettinchidan, “Whistleblowing” (Xabar berish) tizimini moddiy rag’batlantirish. Korrupsiya holatlari haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish va rag’batlantirishning aniq mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Xususan, fosh etilgan korrupsion jinoyat natijasida davlatga qaytarilgan mablag’ning muayyan foizini (masalan, 5-10 foiz) xabar bergan shaxsga mukofot sifatida to’lash tartibini joriy etish, latent jinoyatlarni ochishda jamoatchilik faolligini oshiradi.

Sakkizinchidan, jazo muqarrarligi va differensiatsiyasi. Byudjet mablag’larini talon-toraj qilish jinoyatlari uchun javobgarlikni kuchaytirish, xususan, korrupsion jinoyatlar uchun tayinlangan jarima jazosini yetkazilgan zarar miqdoriga bog’lash hamda ushbu toifadagi shaxslarga nisbatan amnistiya aktlarini va jazoni yengillashtiruvchi normalarni qo’llamaslik bo’yicha Jinoyat kodeksiga o’zgartirishlar kiritish zarur.

To’qqizinchidan, O’zbekiston respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutida ilmiy-kriminologik tadqiqotlar markazini tashkil etish. Institut huzurida korrupsiyaning sabab va sharoitlarini ilmiy o’rganuvchi, sotsiologik so’rovlar o’tkazuvchi va qonunchilikka takliflar ishlab chiquvchi mustaqil **Milliy kriminologik tadqiqotlar markazini** tashkil etish, kurash strategiyasining ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi.

O’ninchidan, korrupsiyaga qarshi ta’lim va madaniyat. Davlat xizmatchilari uchun “Etika va korrupsiyaga qarshi kurashish” bo’yicha majburiy malaka oshirish kurslarini joriy etish hamda oliy ta’lim muassasalarida “Korrupsiyaga qarshi komplaens” fanini o’quv dasturlariga kiritish orqali jamiyatda korrupsiyaga nisbatan “nol toqat” (zero tolerance) muhitini shakllantirish lozim.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi korrupsion jinoyatchilik koeffitsientini barqarorlashtirish va davlat boshqaruviga bo’lgan jamoatchilik ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2023.
2. O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. (Rasmiy nashr). – Toshkent: Adolat, 2024. (Xususan, 167, 168, 209, 210-moddalar tahlili bo’yicha).
3. O’zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi O’RQ-419-son Qonuni.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O’zbekiston – 2030” strategiyasi to’g’risida”gi PF-158-son Farmoni.
5. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (Merida, 2003 yil 31 oktyabr). – O’zbekiston Respublikasi tomonidan 2008 yilda ratifikatsiya qilingan.
6. O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2020–2025 yillardagi jinoyatchilik holati to’g’risidagi statistik axborotnomalari.
7. Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari (2025 yilning 12 oyi bo’yicha): Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O’zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026.
8. Abdurasulova Q.R. Kriminologiya: Darslik. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2020. (Korrupsion jinoyatchilik determinantlari mavzusi).
9. O’zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
10. O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rasmiy sayti – www.anticorruption.uz.
11. O’zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portali – www.data.gov.uz.